

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT TRANSPORTIDA
ELEKTRON TULOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI
TRANSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH.**

*Mualliflar. Olimov Odil Orif o'g'li, Olimova Shaxlo Pardaboy qizi—
O'zbekiston Respublikasi. Jizzax viloyati, Jizzax shaxri,
Islom Karimov prospekti – 4. Jizzax Politexnika Instituti.*

Annotasiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasida jamoat transportida elektron tulov tizimini takomillashtirish orqali transport samaradorligini oshirish usullari hamda vazifalar keltirib o'tilgan. Tizimning avzalliklaridan biri, unda zamonaviy bank kartalari (Uzcard, VISA, Mastercard, UPI, MIR) orqali to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatining yaratilgani hamda rejaga muvofiq, bizning Markazimizga integratsiya qilinishi hisoblanadi.*

Kalit suzlar. *Jamoat transporti, elektron tulov tizimi, takomillashtirish, transport samaradorligini oshirish, zamonaviy bank kartalari, (Uzcard, VISA, Mastercard, UPI, MIR) to'lovlarni amalga oshirish.*

Bugungi kunda Respublikamizda intellektual transport tizimini yaratishga katta e'tibor berilmoqda. Hozirda dunyo bo'ylab avtomobillar harakati juda tez sur'atda ko'paymoqda. Avtomobillarning sezilarli darajada ko'payishi va yo'l tarmog'ining cheklangan imkoniyatlari tufayli juda ko'p ziddiyatli vaziyatlar yuzaga keladi va transportning harakatchanligi keskin kamayadi.

Dunyodagi yirik shaharlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, yo'llar-ning tirbandligi muammosini faqat magistral yo'llarni qurish bilan hal qilib bo'lmaydi: juda ko'p sonli avtomobillar darhol yo'lning yangi qismi-ga shoshilib o'tishi, tirbandlikni keltirib chiqaradi. Transport oqimini samarali tartibga solish uchun intellektual transport tizimlarini joriy qilish kerak.

O'zbekiston respublikasida UzCard va BPC Group jamoat transportida avtomatlashtirilgan to'lov tizimini ishlab chiqdi. Tizim orqali zamonaviy bank kartalarida (Uzcard, VISA, Mastercard, UPI, MIR) to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Yagona umumrespublika protsessing markazi "BPC Group" xalqaro xolding kompaniyasi bilan hamkorlikda ABT (account based ticketing) texnologiyalari asosida "STS" — "Smart Ticketing Solution" dasturiy-ta'minot majmuini ishlab chiqdi.

Kompaniyada ta'kidlanishicha, mutaxassislar tomonidan kontaktsiz to'lovlar sohasida yaratilgan qulayliklarni inobatga olib, tranzaksiyalarni amalga oshirish jarayonida havfsizlikni ta'minlash va transport kompaniyalari tizimida benuqson tizimni joriy etish bilan birga, ushbu tizimni avtomatlashtirish ishida inson omillariga

bog'liqlikni minimallashtirishga alohida e'tibor berilgan.

BPC kompaniyasi raqamli va innovatsion ishlanmalar bozorida yetakchi kompaniyalardan biri hisoblanib, dunyoning 70 dan ortiq mamlakatida o'z hamkorlariga ega. Shuningdek, kompaniya jamoat transportida to'lovlarni amalga oshirish sohasida avtomatlashtirilgan ishlanmalarni joriy etishda ko'pyillik tajribaga ega. Sberbank hamkorligi doirasida Markaziy Transport Platformasiga ulangan hamda amalga oshirilgan loyihalar ro'yxatiga Rossiya Federatsiyasining 20 dan ortiq shaharlari ham kiritilgan.

O'zbekiston respublikasida shahar jamoat transporti tizimini kompleks rivojlantirish, yo'lovchilarga sifatli va xavfsiz transport xizmatlarini ko'rsatish, transport infratuzilmasini yaxshilash, harakat tarkibini barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy avtobuslar bilan yangilash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda piyodalarga qulay harakatlanish muhitini yaratish maqsadida:

O'zbekiston respublikasida shahar jamoat transporti tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

jamoat transporti tizimini uning barcha turlarini uzviy bog'lagan holda kompleks rivojlantirish, aholining jamoat transportidan foydalanish darajasini kamida ikki barobarga oshirish;

jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirish, metropoliten tarmog'ini kengaytirish, zamonaviy transport-o'tish bog'lamalarini hamda namunaviy loyihalar asosida avtobus bekatlarini tashkil etish, jamoat transporti harakatiga ustuvorlik berish uchun chorraha va ko'chalarni qayta loyihalashtirish;

tashuvchilarni moliyalashtirish tizimi va tarif siyosatini takomillashtirish orqali soha korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish hamda xususiy sektor ulushini ikki barobarga oshirish;

velosiped va boshqa motorsiz transport turlarini rivojlantirish, jumladan, piyodalar va velotransport uchun qulay harakatlanish yo'laklarini, velosipedlarni ijaraga berish va ular uchun maxsus turar joylarni tashkil etish;

raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni keng qo'llagan holda transport vositalari harakatini boshqarishning intellektual ("aqli chorraha", "aqli avtobus" va "aqli bekat") tizimlarini joriy etish hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash;

jamoat transporti harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar, jumladan elektrobuslar bilan yangilash.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi O'zbekiston respublikasida shahar jamoat transporti tizimini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlansin:

yo'lovchi tashishlar umumiy hajmida jamoat transportining ulushini hozirgi 21 foizdan 43 foizga oshirish;

jamoat transportida kunlik yo'lovchi tashish hajmini kamida ikki barobarga oshirib, kuniga 2,7 million yo'lovchiga yetkazish;

jamoat transportining harakatlanish o'rtacha oraliq intervalini 2 barobarga kamaytirish;

jamoat transportining yangi tarmog'i asosida 159 ta avtobus yo'nalishlarini, jumladan 11 ta magistral, 14 ta halqa, 92 ta bog'lovchi va 42 ta yetkazib beruvchi yo'nalishlarni bosqichma-bosqich joriy etish;

1 063 ta avtobus, jumladan 673 ta elektrobus xarid qilish yo'li bilan jamoat transporti harakat tarkibini yangilash;

bir transport turidan boshqa transport turiga qulay va tezkor o'tish uchun 16 ta zamonaviy transport-o'tish bog'lamalarini tashkil etish;

namunaviy loyiha asosida 1160 ta avtobus bekatlarini rekonstruksiya qilish.

Transport vazirligi, Moliya vazirligi va Toshkent shahar hokimligining Toshkent shahrida 2023-yil 1-yanvardan boshlab jamoat transportining yangi tarmog'i asosida tashkil etiladigan yo'nalishlarda tashuvchilarni "bosib o'tilgan yo'l", "yo'lovchi oqimi" va "sifat" mezonlari bo'yicha bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqqan holda moliyalashtirishning yangi tizimini (keyingi o'rinlarda — yangi tizim) bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Belgilansinki, yangi tizim asosida:

tashuvchilarni moliyalashtirish manbalari etib jamoat transportida yo'lovchi tashishdan olinadigan daromadlar va mahalliy budjet parametrlarida jamoat transporti uchun ko'zda tutilgan barcha mablag'lar hisoblanadi;

bajariladigan ishlar qiymati tashuvlar bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-xarajatlar hamda kamida 10 foiz rentabellik inobatga olingan holda hisob-kitob qilinadi;

yo'lovchi tashishdan olinadigan daromadlar va mahalliy budjet parametrlarida jamoat transporti uchun ko'zda tutilgan barcha mablag'lar Transport vazirligining Toshkent shahar transport boshqarmasida jamlanadi hamda tashuvchilar bilan hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Transport vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda Jamoat transporti tashuvchilarini bajarilgan ish hajmidan kelib chiqqan holda moliyalashtirish tartibini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

O'zbekiston respublikasida Transport vazirligining shaharlarida avtobus bekatlari namunaviy loyihasini yo'lovchilar, shu jumladan, aholining imkoniyati cheklangan guruhlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishini inobatga olgan holda ishlab chiqish hamda mazkur bekatlar joylashtiriladigan yer maydonlarini elektron onlayn auksion savdolari orqali tadbirkorlik subyektlariga ijara huquqi asosida vaqtinchalik foydalanishga berish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

tadbirkorlarga mazkur bekatlarda faqatgina reklama vositasi, bankomatlar va oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishga mo'ljallangan o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish (vending) avtomatlarini joylashtirishga ruxsat etiladi;

yangi va rekonstruksiya qilinadigan bekatlar joylashtiriladigan yer maydonlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirish taqiqlanadi, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish (vending) avtomatlari bundan mustasno.

transport-o'tish bog'lamlalarini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlar O'zbekiston respublikasida shahar mahalliy budjeti hisobidan amalga oshiriladi hamda qurilish ishlari yakunlanganidan so'ng obyektlar o'rnatilgan tartibda balans qiymatida akseonerlik jamiyatlariga uning ustav kapitalidagi davlat ulushini oshirish evaziga o'tkaziladi;

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy dasturlari transferini amalga oshirish, hamda mutaxassislik modullariga yuqori malakali chet ellik olim va ekspertlarni keng jalb etish nazarda tutilgan. Buning avzalliklaridan biri, unda zamonaviy bank kartalari (Uzcard, VISA, Mastercard, UPI, MIR) orqali to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatining yaratilgani hamda rejaga muvofiq, bizning Markazimizga integratsiya qilinishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Информационные технологии управления: Учебное пособие. Под.ред. проф. Г.А. Титаренко.– 2-е изд., доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – 439с.
2. Икрамов М.А. Автомобильно-дорожный сектор государств центральной Азии: проблемы и перспективы развития /М.А.Икрамов, А.А.Зохидова, В.А.Топалиди. –Ташкент:Изд-во Нас. Библиотеки Узбекистана им.Алишера Навои, 2011.-155с.
3. Мамаев, Г. И., & Бакиров, Л. Ю. (2022). Проблемы уличных парковок и зарубежный опыт организации парковок. *Universum: технические науки*, (5-4 (98)), 57-61.
4. Мамаев, Г. И., & Бакиров, Л. Ю. (2022). КЎЧА БЎЙЛАБ ТЎХТАБ ТУРИШ ЖОЙЛАРИНИНГ ҲАРАКАТЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 520-524.
5. J. R. Kulmuxamedov. *Transport logistikasi asoslari* J. 2013g.
6. Lester A. Hoel, Nicholas J. Garber, Adel W.Sadek. *Transportation infrastructure engineering/ A Multimodal integration*. University of Vermont.
7. Бутаев Ш.О., Мадаминов Ю.И. Совершенствование методов управления процессами автомобильных перевозок грузов.Ташкент:Фан, 1988.-150 с.
8. Модели и методы теории логистики: Учебное пособи. 2-е изд./Под ред. Лукинскогo В.С. СПб: Питер. 2007. -448 С.

9. Рахматуллаев М. Qosimov S.X. Yuk oqimini logistik kuzatuv va komplekslarini mahalliyashtirish omillari. Ilmiy-tex. jur. 23 (8) 52.
- 10.Рахматуллаев М. Qosimov S.X. Современные инновации и технологии организации перевозки. Ilmiy – texnik jurnal 23 (9) 167.
- 11.Aleksander Sladkowski. Intelligent transport systems-problems and perspectives. Springer.-2016. – 307 ps.
- 12.Barbara Flugge. Smart mobility – connecting everyone. 2017.
- 13.Косимов, С. X., & Нишонов, А. О. У. (2021). Пути развитие логистической системы при организации перевозки грузов на международных маршрутах. Academic research in educational sciences, 2(3).
- 14.Косимов, С. (2021). ПРИМЕНЕНИЕ ОБУЧАЮЩИХ ПРОГРАММ-ТРЕНАЖЕРОВ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА «ЛОГИСТИКА ТРАНСПОРТА». InterConf.
- 15.Косимов, С., & Косимов, Б. (2021). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНАЛОВ В ЛОГИСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ. InterConf.
- 16.Qosimov, S. (2021). METHODOICAL BASIS FOR TEACHING ELECTRONIC EDUCATION. InterConf.
- 17.Шарипова, Н., & Рахматуллаев, М. (2021). К ВОПРОСУ О НАЗНАЧЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ДОРОЖНЫХ КОНТРОЛЕРОВ В СИСТЕМЕ ДОРОЖНОЕ УПРАВЛЕНИЕ. InterConf
- 18.Akmal Azimov, & Abdukarim Muxtarov (2021). Yo'lovchi tashuvchi avtotransport korxonalarining samaradorligini belgilovchi omillar tahlili. Academic research in educational sciences, 2 (4), 1395-1340. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00749.
- 19.Abdunazarov J.N Almatov M.I “Jamoat transportini samarali ishlashi prinsiplari” ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ ТЕХНИК, МУҲАНДИСЛИК ВА ТЕХНОЛОГИК МУАММОЛАРИ ИННОВАЦИОН ЕЧИМЛАРИ мавзусидаги Халқаро миқийёсидаги илмий-техник анжумани материаллари тўплами 1- Қисм (2021 йил 29-30 октябрь)516-bet
- 20.Xoshimova Sh. S Effective organization of cargo terminal activity criteria //Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center (2023 yil 18-25 august). 139-143 b.